

**METOD TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHIYATI  
XUSUSIDA**

**Ibragimov Sardor Bazarovich**

**Xorazm viloyati Xiva shaxridagi 12 – sonli  
umumta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada muallif tomonidan bugungi kundagi zamonaviy ta’lim tizimining asosini tashkil qiluvchi metod tushunchasi hamda metodlarning ta’lim jarayoni uchun naqadar muhimligi, qo’llanilishi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikda ta’lim olishini taminlovchi ta’lim metodlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar joy olgan.

**Kalit so‘zlar.** Metod, “Ta’lim berish metodi”, “metodos”, “Klaster”, “audiovizual”, “vizual”, “Metod natijaviylining mezoni”, “aqliy hujum”, “loyiha metodi”.

Yangi O‘zbekiston bugun jadal sur’atlar bilan rivojlanib borar ekan, uni taraqqiyot bosqichiga ko‘tarish o‘sib kelayotgan yosh avlodning qo‘lida. Shunday ekan, o‘z qarashlariga ega, mustaqil fikrlay oladigan, fikrlarini ijodiy, erkin bayon qila oladigan yoshlarni tarbiyalash ayni paytda eng dolzarb masalalardan biridir.

Fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarni mustaqil fikrlashga va bu fikrlarini bayon eta olishga o‘rgatish, eng avvalo, fanlarni o‘qitishda turli xil metod va usullarini qo‘llash orqali namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda metod va ta’lim metodlariga qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

**Metod bu** - yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “metodos”- biror narsaga yo‘l ma’nosini anglatadi.

Metod-tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi tadqiqot usullari va jarayonlar yig‘indisidan iborat, metodning o‘zi nazariyadan, tadqiqot metodikasi va texnikasidan tarkib topadi[1].

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

**Ta’lim berish metodi** - belgilangan ta’lim berish maqsadiga erishish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo‘li hisoblanadi.

O‘qitishning faol metodlari nafaqat o‘quv ma’lumotlarini eslab qolishni keskin yaxshilaydi, balki ma’lumotlarni aniqlashga, amaliyotda yoki kundalik hayotda zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Asosan ma’lumotni passiv qabul qilish bilan ta’lim oluvchilar xotirasida 10% o‘qiganlarini, 20% eshitganlarini, 30% ko‘rgan narsalarini, 50% eshitganlarini va ko‘rgan narsalarini saqlaydilar. Shu bilan birga, ma’lumotni faol qabul qilish bilan ular 80% o‘zları aytganlarini, 90% o‘zları bajarganlarini xotiralarida saqlab qoladilar. Ma’lumotni qabul qilgandan keyin 72 soat (uch kun) o‘tgach, ovozni qabul qilish (eshitish) vaqtida tinglovchining xotirasida taxminan 10%, vizual (ko‘rganda) bilan 20%, audiovizual (eshitilganda va ko‘rganda) bilan 50%, audiovizual qabul qilish va muhokama qilish bilan 70%, audiovizual qabul qilish, muhokama qilish va amalda qo‘llash imkoniyati bilan 90% ma’lumot qoladi[2].

O‘qitishning faol metodlariga quyidagi metodlar kiradi: suhbat, munozara, muammoli topshiriq va loyihametodlari, ishbilarmonlik va ro‘lli o‘yinlar, individual (amaliy) metod, aqliy hujum, loyiha metodi va boshqalar.

Ta’lim berish metodi, ta’limiy maqsadni amalgalashish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi. Metodlar ta’lim oluvchi bilishi, udallashi va qadrlashi lozim bo‘lgan bilimlarga yo‘l ko‘rsatib, ko‘zlanayotgan natijalarga erishishni ta’minkaydi.

Metodlarni tanlashning asosiy qoidasi → turlicha emas, ta’lim berish maqsadiga mos kelishi lozim.

Metodlarga qo‘yiladigan asosiy talab → natija beradigan, faqat bittasini qo‘llash.

Metod natijaviyligining mezoni → belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo‘llashning mosligi va tejamkorligi.

Ta’lim texnologiyasini loyihalashda metodni ongli tanlash, har birining imkoniyatlarini ko‘ra bilish kerak. Metodni tanlab, o‘qituvchi o‘ziga savol berishni boshlaydi: “Metodni qo‘llashdan so‘ng natijalar qaysi sohalarda: bilimlar sohasidami, ko‘nikmalardami, malakalardami yoki ko‘rsatmada ko‘p bo‘ladi? Keyingi savol ta’lim berishning bajariladigan ishlar tartibiga taalluqli: “Talabalarning faolligi (tashabbus) qanday bo‘lishi kerak?”

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

Yaxshi yoki yomon metodlar mavjud emas. Metodning natijaviyligini bajarilgan yoki bajarilmagan vazifadan bilish mumkin.

Qanday qilib keng tarqalgan metodlar, jumladan “Aqliy hujum” yoki “Guruhli munozara” natijaviyligini o‘quv mashg‘ulotida yechiladigan topshiriqlar bilan bog‘liqsiz yoki aniq amaliy vaziyatni tahlil qilish va yechish (“Keys-stadi”) metodining natijaviyligini baholash mumkin.

Tajribalarning ko‘rsatishicha, metodning asosiy natijaviylik mezonlari quyidagilar:

- belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo‘llashning mosligi va iqtisodiyligi;
- uni qo‘llashda soddalik va osonlik;
- nafaqat eng yaxshi natijalarni ta’minlashi, balki ularga erishishning yuqori ishonchlilagini ta’minlay olishi.

**Faol ta’lim berish metodi** – bu, ta’lim oluvchilarning bilim faoliyatlarini rag‘batlantiruvchi metoddir. Mazkur metod u yoki boshqa muammoni yechish to‘g‘risidagi fikrlarni erkin almashinuvini nazarda tutuvchi suhbat asosida quriladi. Eng ko‘p tarqalgan va xususiyatga ega bo‘lgan ta’lim metodlari quyidagilar: “Suhbat”, “Bahs”, “O‘yin”, “Keys-stadi”, “Loyihalar metodi”, “Muammoli metod”, “Aqliy hujum” va boshqalar hisoblanadi[8].

**Innovatsiya** (inglizcha “innovation”) - yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalilanildi[3].

**Interfaol** (Interactive) **ta’lim berish** - suhbatli ta’lim berish, bunda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi, ta’lim oluvchi va kompyuterning o‘zaro harakati amalga oshiriladi. Interfaollik ta’lim berish sohasida umuman yangi hodisa, bunga binoan ta’lim beruvchi:

- o‘qituvchi, boshqa talabalar, ma’muriyat bilan faqat shaxsiy uchrashuv yo‘li bilan emas, balki ta’lim jarayonining barcha subyektlari bilan faol o‘zaro harakat qilishi mumkin;
- multimediali obyektlarni tahlil etish jarayonida ularning mazmuni, shakli, o‘lchovi va rangini o‘zgaruvchan boshqarish, ularni har tomondan ko‘rib chiqish, shunga o‘xhash boshqa harakatlarni bajarishni, eng ko‘p ko‘rgazmalilikka erishishda to‘xtatish va xohlagan joyida yana ishga tushirishi mumkin. Interfaollik daraja qancha yuqori bo‘lsa, ta’lim berish jarayoni ham shuncha natijali bo‘ladi[7].

# **“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 11. November 2024**

O‘qitish metodi deganda, ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talabalarning ma’lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, o‘qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya’ni o‘qituvchi tomonidan talabalarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, shuningdek talabalar tomonidan o‘sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish faoliyatida qo‘llaniladigan usullarni ham o‘z ichiga oladi.

Pedagogik adabiyotlarda “ta’lim metodi” tushunchasiga xilma - xil ta’riflar beriladi. Yu.K.Babanskiy “...ta’lim metodi ta’limiy vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va talabaning tartibga solingan, o‘zaro bog‘liq faoliyat yuritish usulidir”, degan ta’rifni bergan bo‘lsa, T.Allina ta’lim metodi deganda, “...talabalar bilish faoliyatini tashkil etish usuli”ni tushunadi[5].

Didaktika tarixida ta’lim metodlarining xilma-xil tasniflari ishlab chiqilgan. Eng keng tarqalgan tasnifga ko‘ra, ta’lim metodlari og‘zaki, amaliy, ko‘rgazmali metodlarga ajratiladi, ularni tanlashda o‘qituvchi, birinchidan, o‘quv materiali mazmuniga, ikkinchidan, ta’lim oluvchilarning psixik rivojlanishi darajasiga e’tibor berishi kerak[4].

Xulosa o‘rnida shuni takidlash joizki, *bugungi* kunda uzlucksiz ta’lim tizimida, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorlini taminlashda metodlarning o‘rni beqiyosdir. Ta’lim-tarbiya jarayonida hamda ta’lim tizimining har bir bosqichida o‘rganiladigan fanlar, ularning xususiyatlari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda metodlardan foydalanishi samarali hisoblanmoqda.


## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Alimova D.A., Ilxamov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. B.17.
2. Tolipov, O‘, Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: “Innovatsiya-ziyo”, 2019. B.154
3. Atayeva N., Rasulova F., Salayeva M., Hasanov S. Umumiyy pedagogika. T.: “Fan va texnologiya”, 2012.-B. 615.
4. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi (O‘quv qo‘llanma). T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. -B.124.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 11. November 2024**

5. O.A.Allaberganov., M.M.Allaberganova. “Tarix o‘qitish metodikasi” fanidan qo‘llaniladigan metodlar. –Buxoro.: Durdona, 2024.-B. 13.
6. Allaberganov, O. A. (2024). PROBLEMS AND CONFLICTS IN THE PENSION PROVISION OF RURAL RESIDENTS OF THE UZBEK SSR IN 1945-1991 (ON THE EXAMPLE OF THE KHOREZM REGION). Экономика и социум, (8 (123)), 30-35.
7. Allaberganov, O., & Rajapova, E. (2024). TARIX DARSLARIDA QO ‘LLANILADIGAN METODLAR, INTERFAOL METODLAR VA ULARNING MAZMUN MOHIYATI. Innovations in Science and Technologies, 1(1), 58-67.
8. Allaberganov, O., & Bekboltayeva, M. (2024). TARIX FANI TARAQQIYOTIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI. Interpretation and researches, 2(3 (25)).



---

**Research Science and  
Innovation House**